




# TOSHKENT SHAHAR STATISTIKA BOSHQARMASI


**Toshkent shahrida  
kichik tadbirkorlik  
2021- yil yanvar-dekabr**

# Toshkent shahrida kichik tadbirkorlik


Yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining YaHMdagi ulushi, % da



2019- yil



2020- yil



2021- yil

2021- yilning yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining YaHMdagi ulushi **48,1** % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga **33,1** birlikni tashkil qildi.

2021- yilning yanvar- dekabr oylarida **15972** ta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan **10,2** foizga ko'p demakdir.

**2021- yilning yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da**

Savdo



Sanoat




Qurilish



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxona va mikrofirmalar savdoda **6300** ta, sanoatda **2061** ta, qurilish **1481** ta, yashash va ovqatlanishda **947** ta, axborot va aloqada **873** ta, tashish va saqlash **570** ta tashkil etilgan.


# Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

**2021- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da**




**2021- yilning yanvar-dekabrida faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda**

## Yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari, % da



# Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar

2021- yil yanvar-dekabrida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar , % da




2020 y.

2021 y.

Yanvar-dekabr oylarida faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlikda

Hududlar bo'yicha yanvar-dekabr oylarida faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlikda



■ 2020- y. ■ 2021- y.

# Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar



## Hududlar bo'yicha yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda


Uchtepa	1423	1390	Sirg'ali	1066	937
Bektemir	381	348	Yakkasaroy	1112	1282
Yunusobod	1715	1908	Yashnobod	1200	1344
Mirzo-Ulug'bek	1606	1683	Yangihayot		466
Mirobod	1156	1272	Chilonzor	1937	2011
Shayxontohur	1455	1558			
Olmazor	1446	1593			

■ 2020 y. yanvar-dekabr

■ 2021 y. yanvar-dekabr

## 2021-yil yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha ulushi, % da


2021-yilning yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Chilonzor tumani – 12,6%, Yunusobod tumani – 11,9%, Mirzo-Ulug'bek tumani – 11,7%, Olmazor tumani – 10,0%, Shayxontohur tumani – 9,8%, Uchtepa tumani – 8,7%, Yashnobod tumani – 8,4% hissalariga to'g'ri keldi.





# Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

Yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda



Ma'lumot uchun: 2021– yilning yanvar-dekabrida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng ko'p salmog'i, birlikda:

**Savdoda**

6300 ta

**Sanoatda**

2061 ta


**Qurilishda**

1481 ta

**Yashash va ovqatlanishda**

947 ta

Yangi tashkil etilgan korxonalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan tumanlar, birlikda



# Kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyati haqida



2021- yil yanvar-dekabr oylarida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga nisbatan **33,1** birlikni tashkil etdi.




Toshkent shahrida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda), yanvar-dekabr holatiga ko'ra\*



2021- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga hududlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Yakkasaroy tumanida 66,8 birlik, Mirobod tumanida 52,3 birlik, Bektemir tumanida 48,1 birlik, Chilonzor tumanida 45,7 birlik, Sergeli tumanida 35,1 birlikni tashkil etgan.

2021– yilning yanvar-dekabrida hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)\*



# Kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyati haqida

**Toshkent shahrida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda),  
2021- yil yanvar-dekabr holatiga ko'ra\***


**Eng yuqori ko'rsatkich**  
Yakkasaroy tumani  
- 66,8 birlik.

**O'rtacha ko'rsatkich**  
Bektemir tumani  
- 48,1 birlik.


**Past ko'rsatkich**  
Yangi hayot tumani  
- 12,4 birlik.

2021- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga tumanlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Yakkasaroy tumanida 66,8 birlik, Mirobod tumanida 52,3 birlik, Bektemir tumanida 48,1 birlik, Chilonzor tumanida 45,7 birlik, Sergeli tumanida 35,1 birlikni tashkil qilgan.

**2021- yilning yanvar-dekabrida har 1000 aholiga to'g'ri keladigan tadbirkorlik subyektlari sonini eng ko'p tashkil etgan shahar va tumanlar, birlikda \***



# Kichik tadbirkorlik subyektlarining YaHMdagi ulushi




Yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining YaHMdagi ulushi, % da

2021- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi **49,0** % ni tashkil qildi. (2020- yilning yanvar-dekabrida **51,2** %).

# Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) eksporti




2021- yil yanvar-dekabr oylarida kichik biznes subyektlari mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi 647,7 million AQSh dollarini yoki umumiy eksport hajmining 17,0 % ini tashkil etdi.




Yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami eksportdagagi ulushi

**2021- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jami eksportdagagi ulushi, % da**



2021- yil yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Chilonzor tumanida – 66,4%, Uchtepa tumanida-60,1 %, Bektemir tumanida – 49,5 % Mirzo-Ulug'bek tumanida – 42,5, Yashnabod tumanlarida – 43,1 % va eng kam ko'rsatkich Mirobod tumanida – 2,5 % ni tashkil etdi.

## Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importi




Yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami importdagi ulushi

2021- yil yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jamiga nisbatan eng yuqori ulushi Yangihayot tumanida – 80,3 %, Sergeli tumanida – 70,7 %, Olmazor tumanida – 63,1 %, Mirzo-Ulug'bek tumanida – 67,5 %, Yakkasaroy tumanida – 47,6 %. Eng past ko'rsatkich Yashnobod tumanida – 36,7 % ni tashkil etdi.

2021- yil yanvar-dekabr oylarida kichik biznes subyektlari mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi **6146,3** million AQSh dollarini yoki umumiy importning **48,6** % ini tashkil etdi.




**2021- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importdagi ulushi, % da**



# Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi faoliyati


**2021- yilning yanvar-dekabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi**

2021- yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **31 226,2** milliard so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Olmazor tumani (4393,6 mlrd. so'm), Chilonzor (4303,3 mlrd. so'm), Yashnobot (4093,6 mlrd. so'm), Sergeli (3413,2 mlrd. so'm) va Yunusobod (2424,8 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Shayxontohur tumanida (1192,9 mlrd. so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi eng past bo'lib qolmoqda.


# Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi faoliyati



Yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi ulushi


2021- yil yanvar-dekabr oylarida sanoat ishlab chiqarishining umumiylajmi hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **36,3%** ni tashkil etdi.

## 2021- yil yanvar-dekabr holatiga hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi ulushi, % da



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Olmazor tumani (65,1%), Yunusobod tumani (54,9%), Sergeli tumani (52,2%), Chilonzor tumani (49,6%), Yangihayot tumanida (45,9%), Mirzo-Ulug'bek tumani (43,1%), Yakkasaroy tumani (43,4%), Uchtepa tumani (41,7%), Bektemir (35,3%) va Mirobod (22,4%) tumani tashkil etdi. Yashnobod tumanida (18,1%) kichik tadbirkorlikning ulushi eng past bo'lib qolmoqda.

## Kichik tadbirkorlik subyektlarining savdodagi faoliyati




Yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining savdodagi ulushi

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Uchtepa tumani (6115,6 mlrd. so'm), Yunusobod (4785,4 mlrd. so'm), Chilonzor (4796,9 mlrd. so'm), Bektemir (3752,5 mlrd. so'm), Shayxontohur (3804,2 mlrd. so'm), Yakkasaroy (3828,5 mlrd. so'm) va Yashnobod (2783,8 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

2021- yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi **39 573,4** mlrd. so'mni yoki umumiy chakana savdo tovar aylanmasining **64,4 %** ini tashkil etib. 2020- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan **11,2 %** ga o'sganligi kuzatildi.


### 2021- yilning yanvar- dekabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana savdo tovar aylanmasi hajmi va o'sish sur'ati



■ hajm, mlrd. so'm

○ o'sish sur'ati, %

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi faoliyati



Yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi ulushi



2021- yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi **15688,5** milliard so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining **59,4%**ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2020- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan **101,3 %** ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Mirzo-Ulug'bek (2024,2 mlrd. so'm), Yashnobod (1934,5 mlrd. so'm), Yakkasaroy (1647,5 mlrd. so'm), Yunusobod (1954,2 mlrd. so'm), Mirobod (1635,6 mlrd. so'm), Chilonzor (1319,8 mlrd. so'm) hamda Sergeli (1106,1 mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.

## 2021- yilning yanvar- dekabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'ati




■ hajm, mlrd. so'm

● o'sish sur'ati, %



## Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmatlar sohasidagi faoliyati




**Yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami xizmatlardagi ulushi**

2021-yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 41570,3 mlrd. soʻmlik xizmatlar koʼrsatildi yoki koʼrsatilgan xizmatlar umumiy hajmining **40,0** % ini tashkil qildi va oʼsish surʼati 2020-yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan **119,9** % ni tashkil qildi.


Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng koʼp xizmatlar hajmi Mirzo-Ulugʼbek tumani (4553,6 mlrd. soʼm), Yunusobod tumani (4252,9 mlrd. soʼm), Chilonzor tumani (4477,3 mlrd. soʼm), Mirobod tumani (3496,7 mlrd. soʼm), Shayxontohur (3420,1 mlrd. soʼm), Yakkasaroy (3669,3 mlrd. soʼm) va Uchtepa (3414,4 mlrd. soʼm) tumanlari hissasiga toʼgʼri keldi.

### 2021-yilning yanvar-dekabrida hududlar boʼyicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va oʼsish surʼati




## 2021- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarininig xizmatlar sohasidagi ko'rsatkichlari


2021- yilning yanvar-dekabrida  
kichik tadbirkorlikning  
ulushi, % da:




Yuk tashishda



Yuk aylanmasida



Yo'lovchi tashishda



Yo'lovchi aylanmasida

2021- yil yanvar-dekabr oylarida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 50,7 % ni tashkil etdi. 2020- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati 106,6 % ni tashkil qildi.

---

2021- yil yanvar-dekabr oylarida, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 50,2 % ni tashkil etgan bo'lib, 2020- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati 104,2 % ni tashkil qildi.

---

2021- yil yanvar-dekabr oylarida, avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 83,1 % ni tashkil etib, 2020- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati 111,5 % ni tashkil qildi.

---

2021- yil yanvar-dekabr oylarida, avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 82,6 % ni tashkil etib, 2020- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati 110,1 % ni tashkil qildi.


# Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2021- yil IV chorak yakunlariga ko'ra, kichik korxona va mikrofirmalar o'rtaida tanlanma kuzatuvlari o'tkazildi.

Ushbu so'rovnoma da 2371 ta kichik korxona va mikrofirmalar ishtirok etdi. Ularning 802 (33,8 %) tasi iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholadi. 1341 (56,6%) ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholadi. Qolgan 228 (9,6%) ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning taqsimlanishi (ulushi) qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 0,3 % (7 ta), sanoatda – 17,8 % (422 ta), qurilishda – 6,1 % (145 ta), savdoda – 32,0 % (759 ta), xizmatlar sohasida – 43,8 % (1038 ta) ni tashkil etdi.

**2021- yil IV chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, % da**




- Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi
- Sanoat
- Qurilish
- Savdo
- Xizmatlar




# Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

**2021- yil IV chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi, birlikda**




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p kuzatuvida ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalar Chilonzor 312 ta, Mirzo-Ulug'bek 253 ta, Olmazor 223 ta, Yakkasaroy 259 ta, Mirobod 235 ta tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

**2021- yil IV chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi, % da**




# Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

**2021- yilning IV choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatini baholash, % da**



**2021- yilning IV choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagisi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatini baholash, % da**



Kichik korxona va mikrofirmalarning 2021- yilning IV choragida, o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra joriy davrda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi sohasida 28,6 % ni, savdo 35,2 % ni, qurilishda 34,0 % ni, tashkil etdi.

Shuningdek iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi sanoat sohasida 59,0 % ni, xizmatda 56,8 % ni, qurilishda 49,0 % ni tashkil etdi.

2021- yilning IV choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning **yaqin 3 oydagisi o'zgarishlar istiqboli** bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 57,1 % ni, qurilish 49,7 % ni, sanoat sohasida 56,2 % ni tashkil etdi.

Shuningdek **yaqin 3 oydagisi o'zgarishlar istiqboli** bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi savdo sohasida 54,4 % ni, xizmatlarda 53,8 % ni, sanoatda 56,2 % ni tashkil etdi.

